



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar-fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **9,5 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,3 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **0,8 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 973 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,8 % kamaygan hamda ularning soni 177 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 903 ta (3,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27,8 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray tumanida (11,2 %), Zangiota (10,9%), va Yuqorichirchiq (6,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Toshkent viloyati	31,6	100,0	27,8	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	738	2,3	600	2,2
Ohangaron	837	2,6	682	2,5
Bekobod	869	2,7	746	2,7
Bo'stonliq	1525	4,8	1215	4,4
Bo'ka	1051	3,3	780	2,8
Quyichirchiq	769	2,4	689	2,5
Zangiota	3826	12,1	3038	10,9
Yuqorichirchiq	1800	5,7	1719	6,2
Qibray	3292	10,4	3121	11,2
Parkent	1607	5,1	1520	5,5
Piskent	830	2,6	752	2,7
O'rtachirchiq	1564	4,9	1367	4,9
Chinoz	1038	3,3	985	3,5
Yangiyo'l	1809	5,7	1316	4,7
Toshkent	1572	5,0	1562	5,6
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	641	2,0	639	2,3
Olmaliq	1356	4,3	1269	4,6
Angren	2169	6,9	1658	6,0
Bekobod	960	3,0	900	3,2
Ohangaron	647	2,0	638	2,3
Chirchiq	1794	5,7	1679	6,0
Yangiyo'l	948	3,0	947	3,4

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,0 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan

01.03.2018 y.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,2 % savdoda, 19,3 % sanoatda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,6 % qurilishda, 3,5 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan




2018 yil yanvar-fevral holatiga 973 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (101 ta), Qibray (84 ta) va Toshkent (71 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Quyichichiq (21 ta), Oqqo'rg'on (24 ta) hamda Ohangaron (25 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (511 ta), sanoatda (238 ta) va savdoda (176 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta), axborot va aloqada (23 ta) va tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdo va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p/dan), boshqa faoliyat turlarida (-0,8 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,2 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p) kamayganligi hamda tashish va saqlashda o'zgarmadi, buning natijasida qurulishda (-0,9 f.p.), (-1,0 f.p), sanoatda (+1,0 f.p.) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,4 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,1	9,7	1,4
Sanoat	19,3	18,3	1,0
Qurilish	6,6	5,9	0,7
Tashish va saqlash	3,5	3,5	0,0
Axborot va aloqa	1,4	1,6	-0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,7	-0,2
Boshqa turlar	26,6	27,4	-0,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	2,7	-0,9

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 22,7 mingdan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,5 mingta, oilaviy korxonalar – 1,3 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,06 mingtani va boshqalar 0,5 mingtani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 618 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 532 taga yoki 16,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 372 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota 85 ta (13,8 %), Qibray 76 ta (12,3 %) va Yuqorichirchiq tumanlari 63 ta (10,2 %) his-salariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod tumani 4 ta (0,6 %), Bekobod shahri 5 ta (0,8 %), Buka va Oqqo'rg'on tu-manlarida 6 tadan (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xori-jiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 397 ta (64,2 %), savdoda 73 ta (11,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi esa 55 ta (8,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (0,8 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (1,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 25 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan yoki 5 baravarga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 17 ta, savdoda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3 tadan, qurilish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 22,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 11,6 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2643 tasi (11,8 %) Qibray, 2506 tasi (11,2 %) Zangiota, 1420 tasi (6,4 foizi) Yuqorichirchiq hamda 1348 tasi (6,1 foizi) Toshkent tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22,4 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6118 tasi (27,3 %) – savdoda, 5257 tasi (23,4 %) - sanoatda, 3028 tasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2069 tasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1836 tasi (8,2 %) - qurilishda, 939 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 380 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 374 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2446 tasi (10,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 899 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,9 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (95 ta), Qibray (81 ta) va Toshkent tumanlarida (64 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent tumani (14 ta), Nurafshon shahri (16 ta) hamda Quyichirchiq tumani (17 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (2068 ta), savdoda (2113 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (1198 ta) va qurilishda (1166 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (248 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (256 ta) hamda tashish va saqlashda (384 ta) tash-


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 1535 tani tashkil etib, ulardan 1370 tasi yoki 89,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,5 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 40,9 % yoki 561 tasi sanoat, 18,4 % yoki 252 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,0 % yoki 233 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 15,8 % yoki 216 tasi savdo, 0,9 % yoki 12 tasi qurilish, 0,8 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 5,3 % yoki 72 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: X.Igamberdiyev
(0371) 230-86-84,83